

Musiqiy ta'lim xususida

Xumora Boymurotova
Ilmiy rahbar: N.Turg'unova
O'zDSMI

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda maxsus bolalar musiqa va san'at maktablarida mavjud dolzarb muammolar va amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar haqida imkon qadar to'xtalib o'tiladi. Jumladan, musiqa maktablariga o'quvchilarni qabul qilish soni yildan yilga kamayib borayotgani, yosh avlodni musiqaga bo'lgan qiziqishlari tobora kamayishi va ularning milliy mumtoz musiqasiga bo'lgan qiziqishini yanada orttirish maqsadida bir qator ishlar amalga oshirish zarurligi baxs etiladi.

Kalit so'zlar: qo'shiq, ashula, maqom, katta ashula, musiqa, ohang

About music education

Khumora Boymurotova
Scientific supervisor: N.Turgunova
UzSIAC

Abstract: This article provides a comprehensive examination of current issues and tasks that need to be addressed in children's special music and art schools. In particular, it is stated that the number of students in music schools is decreasing every year, the interest in music among the younger generation is gradually declining, and a number of measures must be taken to further increase their interest in national classical music.

Keywords: song, sing, maqom, katta ashula, music, melody

“Mustaqillik yillarda yurtimizda katta bunyodkorlik ishlari bilan bir qatorda, madaniyat va san'at sohalarida ham bir qator o'zgarishlar ro'y bermoqda. O'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama sog'lom, bilimli, madaniyatli va barkamol shaxs sifatida yetishishlari uchun ham milliy musiqaning, milliy qadriyatlarimizning o'rni beqiyosdir. Musiqiy ta'lim-tarbiyaning maqsadi yosh avlodni milliy musiqa boyligimizni chuqur idrok eta oladigan va milliy musiqa merosimizga vorislik qila oladigan komil qilib voyaga yetkazishdan iboratdir”¹.

¹ F.Hakimova. Yosh avlodni milliy musiqa vositasida tarbiyalash. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). 2022.

Afsuski, bugungi kunda milliy musiqaga bo'lgan qiziqish, hurmat, asl maqsad, uning mohiyati tobora susayib, yosh o'quvchilar orasida qadr-qiyamatini yo'qotib bormoqda. Bu esa kelajak avlodning milliy musiqa haqidagi tasavvurini yo'q bolishiga sabab bo'ladi, albatta bu juda ham achinarli holat hisoblanadi.

Bugungi kunda maxsus bolalar musiqa va san'at maktabida olib borayotgan o'qituvchilik faoliyatimdan kelib chiqib shuni ayta olamanki, musiqa maktablariga o'quvchilarni qabul qilish soni yildan yilga kamayib bormoqda. Bu hol aynan yosh avlodni musiqaga bo'lgan qiziqishlarini tobora kamayishiga bir sabab bo'ladi. Ayniqsa o'zbek milliy musiqasi va milliy cholg'ularga bo'lgan munosabatlarda ham shu holni ko'ramiz. Hattoki, ayrim musiqa va san'at maktablarida ushbu yo'nalishlarning yopilish holatlariga ham guvoh bo'lmoqdamiz. Bu yoqimsiz holatga barham berish, yosh avlodni musiqaga bo'lgan qiziqishini yanada orttirish maqsadida bir qator ishlar amalga oshirish zarur deb hisoblab quyidagi ishlar amalga oshirish lozim deb topdik;

- umumta'lim maktablariga tashrif buyurib o'quvchilarni vizual tarzda o'zbek milliy cholg'ulari bilan tanishtirish, ushbu sozlarga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirish maqsadida qo'lga olib chertishlariga imkon yaratish;

- umumta'lim maktabi ma'muriyati bilan o'zro kelishgan holda maktabda san'at maktabi o'quvchilari bilan birgalikda konsertlar qo'yish;

- sharoiti mavjud bo'lmagan o'quvchilarga maktab fondida saqlanayotgan cholg'ulardan foydalanish uchun imkon berish.

Umumta'lim o'quvchilari "ustoz-shogird" an'analari asoslangan o'z tengdoshlarining ijrolarini tinglab, tomosha qilar ekanlar qalblarida havas uchquni paydo bo'lib, musiqiy ta'savvurlari yanada oshadi.

Fikrimcha, musiqaga bo'lgan qiziqish eng avval bolalikdan boshlanadi. Maktabda musiqa darslarini olib borayotgan o'qituvchilar milliy musiqa haqidagi qiziqarli ma'lumotlarni va milliy ohanglarni turli zamonaviy pedagogik usullar orqali bolalar qalbiga olib kirishlari lozim.

Qolaversa, bolalar bog'cha yoshidanoq milliy musiqa bilan tanishtirilishi, milliy qadriyatlar haqida tasavvur uyg'otish ham lozim. Buning uchun esa avvalo yetarli musiqiy ma'lumotga ega, o'zbek milliy cholg'ularidan birini mukammal tarzda ijro eta oladigan yetuk mutaxassislarni qabul qilishi va har bir maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqiy sozlarning bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Ammo hozirda ayrim maktabgacha ta'lim muassasalari musiqa rahbarlari hech qanday cholg'ulardan foydalana olmasligi achinarlidir. Hozirda bu kabi muassasalarda o'tkazib kelinayotgan bayramlar professional bolalar ansambllari tomonidan yozilgan qo'shiqlarning audio yozuvlaridan foydalanib o'tkazilishi bolalarni jonsiz musiqa bilan ulg'ayishiga sabab bo'lmoqda. Bolajonlar jonli musiqadan foydalangan holda qo'shiq ijro etsalar va turli hil harakatlarni bajarsalar maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Albatta, aytib o'tish lozimki, bugungi kunda yoshlar o'rtasida musiqaga bo'lgan qiziqishni oshirish maqsadida turli hil ko'rik tanlovlar o'tkazilmoqda. Bu ham o'zining ijobiy samarasini ko'rsatadi. Misol tariqasida o'zbek musiqasining durdonalaridan bo'lmish Shashmaqom, Katta ashula ko'rik tanlovlarni har ikki yilda o'tkazilayotgani yoshlar o'rtasida milliy musiqaga bo'lgan qiziqishni ortishiga sabab bo'lmoqda.

Shuni ham qayd etish joizki, bolalar musiqa va san'at maktablarida "An'anaviy xonandalik" yo'nalishlarida kichik yoshdagi bolalarga mos bo'lgan ashulalarni ko'proq ijod qilish lozim. Chunki, ularning yoshi va ovoz diapazoniga mos bo'lgan qo'shiq va ashulalar juda sanoqli darajadadir. Shu bois hozirda "An'anaviy xonandalik" yo'nalishlarida tahsil olayotgan bolalar ijro jihatidan murakkab bo'lgan ashulalarni kuylashmoqda. Bu esa o'z o'rnida ta'lim berayotgan muallimlarga ham qiyinchilik tug'dirmoqda. Albatta buning yana bir salbiy tarafi ham mavjud. O'quvchilarga ijrolarini osonlashtirish maqsadida ashulalarning ma'lum qismini osonlashtirgan holda yoki o'zgartirish kiritgan holda o'rgatishga majbur bo'linmoqda. Bu kabi holat milliy musiqiy merosimiz bo'lgan maqomlarimizning, bastakorlik ijodiyotining ma'lum ma'noda o'zgarishiga va to'liq shakli o'quvchiga etib bormasligiga sabab bo'ladi.

Xulosa qilib shuni aytish lozimki, o'zbek milliy musiqasining boy merosi bo'lmish ashula, Katta ashula va maqomlar yoshlarga maktabgacha ta'lim davridan singdirish, mumtoz maqom ohanglarini ko'proq tinglatish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hakimova F. Yosh avlodni milliy musiqa vositasida tarbiyalash. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). 2022. 41-bet.
2. Turg'unova N. Musiqa va komillik. Imom al-Buxoriy saboqlari. – Toshkent. №4. 2006. 314-315 b.
3. Turg'unova N. Dutor cholg'usi va ijrochiligi xususida. O'zDSMI Xabarlar. №2. – Toshkent. 2020. 35-39 b.